

**BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA ONA TILINI O‘QITISH  
MASALALARIGA DOIR**

*Jo‘rayeva Nasibaxon G‘aniyevna  
Andijon davlat pedagogika instituti,  
Boshlang‘ich ta’lim metodika kafedrasи katta o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Maqolada boshlang‘ich ta’limda ona tilini o‘qitish masalalariga doir malumotlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** boshlang‘ich ta’lim, ona tili, o‘qish texnikasi, o‘zgalar fikrini va matn mazmunini anglash, fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi.

**Аннотация:** В статье содержится информация по вопросам преподавания родного языка в начальной школе.

**Ключевые слова:** начальное образование, родной язык, техника чтения, понимание чужого мнения и содержания текста, умение выражать свое мнение в письменной форме.

**Abstract:** The article contains information on the issues of teaching the native language in primary school.

**Key words:** primary education, native language, reading technique, understanding other people's opinions and the content of the text, the ability to express one's opinion in writing.

### **KIRISH**

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning ijobiy natijalaridan eng muhim sifatida davlatimiz tomonidan yosh avlodga ta’lim berish va tarbiyalash borasida qilinayotgan ishlarni, xususan, Milliy dasturning yaratilishini alohida ta’kidlash lozimdir. Darhaqiqat, bugungi kunda ta’limning o‘ziga xos modeli yaratildi, davlatimiz taraqqiyotida ta’lim ustuvor sohaga aylandi. Pedagogik ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha hukumatimiz tomonidan bir qator ezgu ishlar amalga oshirildi. Bugungi kunda ta’lim sifatini yanada yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar, xorij tajribasining yutuqli tomonlarini o‘rganish va umumta’lim maktablarining boshlang‘ich ta’lim qismida ulardan oqilona va milliy qadriyatlarimizga tayangan holda foydalanish ommalashib bormoqda. Bu borada hukumatimiz tomonidan qilinayotgan barcha ishlar farzandlarimizning baxtu saodati, ularning yorug‘ kelajagi uchun xizmat qilishi shubhasizdir. CHunki odobli, bilimdon va aqlii, mehnatsevar, iymon-e’tiqodli farzand nafaqat ota-onaning, balki butun jamiyatning eng katta boyligidir.

Ma’lumki, boshlang‘ich ta’lim barkamol avlodni tarbiyalashdagi muhim bosqich hisoblanadi. Bolaning aqliy, jismoniy va psixologik rivojlanishidagi eng asosiy davr –

bu boshlang‘ich sinf davridir. Boshlang‘ich ta’limning yosh avlod hayotidagi roli va ahamiyatini hisobga olgan holda, ta’lim sohasida islohotlar olib borish davrning talabidir va bu vazifani bugungi kunda oliy ma’lumotli, yuksak professional mahoratga ega bo‘lgan pedagogik kadrlar bajarmoqda. SHuning uchun boshlang‘ich ta’limiga e’tibor va yangicha yondashuv xalq ta’limining diqqat markazidagi vazifalardan biridir. “Boshlang‘ich ta’lim konsepsiysi”da ta’kidlanganidek, bugungi kunda o‘zida ta’lim va tarbiya elementlarini mujassamlashtirgan boshlang‘ich ta’lim jarayonini tashkil etish dolzarb vazifalardan biridir. Boshlang‘ich ta’lim jarayonida ona tili ta’limining ahamiyati katta.

### MUHOKAMA VA NATIJALAR

Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilar ona tili va o‘qish predmetlaridan o‘qish texnikasi, matn mazmunini va o‘zgalar fikrini anglash malakasi, fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarning minimal darajasi belgilab berildi. Bu o‘rinda ona tiliga katta vazifa yuklatildi: ona tili ta’limiga o‘quv fani sifatidagina emas, balki butun ta’lim tizimini uyuştiruvchi ta’lim jarayoni sifatida qaraldi.

Ona tili bo‘yicha minimal talablar uch parametrli standart o‘lchovi orqali aks ettirildi:

- o‘qish texnikasi;
- o‘zgalar fikrini va matn mazmunini anglash;
- fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi.

Bu talablarni amalda bajarish ta’lim jarayoniga Milliy dastur talablari asosida asyangicha o‘qitish texnologiyalarini tatbiq etishni taqozo qiladi.

Hozirda o‘quvchilarga bilim berish, bilimlarni oshirishda mustaqil ishlarni uyuştirish, bilimlarni hisobga olish kabi metodik tavsiyalar tizimi ishlab chiqilmoqda, texnik vositalardan unumli foydalanish, grammatic ta’limiy o‘yinlarni joriy etish keng tus olmoqda, ta’lim jarayonida test topshiriqlaridan, turli boshqotirma va jadvallardan keng foydalangan holda mashg‘ulotlar uyuştirilmoqda. Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, ona tili o‘quv fani sifatida shakllanib, rivojlanish ningmurakkab yo‘lini bosib o‘tmoxda.

Ona tili boshlang‘ich sinflarda o‘quv predmeti sifatida e’tirof etiladi. Til fikrni shakllantirish va bayon qilish, taassurot, his-tuyg‘ularni ifodalashda muhim o‘rin tutadi. Til jamiyat a’zolarining bir-biri bilan o‘zaro aloqasi uchun xizmat qiladigan vositadir. Bu vosita qanchalik takomillashsa, fikr shunchalik aniq, ta’sirchan ifodalananadi. Demak, kishilarning o‘zaro munosabati, his-tuyg‘ulari, kechinma va holatlari til vositasida aniqlashadi. Maktabda ona tilini chuqur o‘rganish zarurati tilning bajaradigan asosiy vazifalaridan kelib chiqadi.

K.D.Ushinskiy boshlang‘ich maktab o‘quv predmetlari tizimida ona tiliga katta ahamiyat berib, uni markaziy va yetakchi predmet deya e’tirof etadi. “Ajoyib

o‘qituvchi bo‘lgan ona tili bolaga ko‘p narsani o‘rgatadi... Bola ikki-uch yil ichida shuncha ko‘p narsa o‘rganadiki, ko‘p narsa bilib oladiki, yigirma yil qunt bilan metodik jihatdan juda to‘g‘ri o‘qiganda ham uning yarmicha o‘rgana olmaydi. Ona tilining ulug‘ pedagogligi ham ana shundadir” , – deydi u. Shuning uchun ham boshlang‘ich sinflarda ona tilini o‘rganishga katta ahamiyat beriladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ona tili darslarida ongli o‘qish va savodli yozishga o‘rganadilar, og‘zaki va yozma nutqning qonun-qoidalalarini egallaydilar. Ona tili sohasidagi ko‘nikma-malakalar (nutq, o‘qish va yozishga oid malakalar) o‘quvchi o‘quv mehnatining zaruriy sharti va vositasidir. O‘quvchi o‘qish ko‘nikmalarini egallah bilan bir qatorda, birinchi navbatda, o‘zining ona tilini o‘rganishi zarur, chunki ona tili bilimdonlikning, aql-idrokning kalitidir.

Ona tili boshqa fanlarni o‘qitish vositasi hamdir: jamiyat tarixi ham, tabiiy fanlar ham ona tili yordamida o‘rganiladi. Demak, ona tili bolaning umumiy kamol topishida ham, bilim va mehnatga havasini uyg‘otishda ham alohida o‘rin tutadi.

Til muhim tarbiya vositasidir. Badiiy adabiyotlarni, gazeta, jurnallarni o‘qigan bola o‘zida eng yaxshi xislatlarni tarbiyalab boradi, muomala madaniyatini egallaydi.

Ona tili boshlang‘ich sinflarda asosiy o‘rinni egallar ekan, har bir o‘quvchida ona tiliga qiziqish va muhabbatni tarbiyalab borish zarur.

Demak, ona tili jamiki bilimlarning kaliti, poydevoridir. Uni o‘qitish jarayoniga esa yuksak pedagogik mahorat va ijodiylik ruhi bilan yondashish zarur. Bu jarayon hozirgi kun talabiga javob bermasa, boshqa fanlar ta’limiga ham putur yetishi mumkin. Hozirgi kun talabi esa o‘quv jarayonini mukammal isloh qilish, ta’lim samaradorligini muttasil oshirib borishdir. Shunga binoan “Yangi avlod darsliklarini yaratish bo‘yicha” muhim qadamlar tashlandi. Bunda, so‘zsiz, ta’limning yangi, zamonaviy texnologiyasiga suyanish kutilgan natijani berishi muqarrardir.

Ona tili maktabda o‘quvchining kamol topishida, fikrlash darajasining o‘sishida, bilim va mehnatga havasini uyg‘otishda, ilmiy tushunchalarini, nutqiy malakalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etar ekan, ona tilidan olib boriladigan barcha mashg‘ulotlar tizimi shunday qurilishi kerakki, bu tizim o‘quvchilarda o‘z ona tiliga nisbatan e’tibor va muhabbat, o‘z yurtiga, xalqiga mehr, Vataniga cheksiz hurmat va sadoqatni o‘stirishi zarur.

Boshlang‘ich sinflarda ona tili ta’limi bolalarning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirishga, ularda erkin fikrlay olish, o‘zgalar fikrini anglash, o‘z fikrini og‘zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olishga, jamiyat a’zolari bilan erkin muloqotda bo‘la olish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu o‘rinda ona tili ta’limiga o‘quv fani sifatida emas, balki butun ta’lim tizimini uyshtiruvchi ta’lim jarayoni sifatida qarash lozimligini alohida ta’kidlash joizdir. Boshlang‘ich ta’lim davlat qonunini hayotga tatbiq etishda muhim bosqich hisoblanadi va unda ona tili o‘qitish asosiy o‘rin egallaydi.

## XULOSA

Boshlang‘ich ta’limning samaradorligini ta’minlashda o‘qituvchining shaxsiy sifatlari va pedagogik kasb mahorati, kompetensiyasi, kreativligi muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi barcha pedagogik-psixologik vositalarni qo‘llagan holda kichik mакtab yoshidagi o‘quvchilarda yaxlit tarzdagi o‘quv faoliyatini shakllantira olishga bilim-ko‘nikma, malakalari, shu bilan birga, insoniy shaxsiy sifatlari bilan ibrat bo‘lmog‘i kerak. Shundagina, boshlang‘ich ta’limning o‘z oldiga qo‘ygan ta’limiy va tarbiyaviy maqsadlari o‘z natijasini beradi.

## REFERENCES:

1. Андрианов П.Н. Мактаб ўқувчилари техник ижодкорлиги. Тузувчи: П.Н. Андрианов Т., Ўқитувчи 1989 й.
2. Ushinskiy K.D. Tanlangan pedagogik asarlar. Т.: O‘zdavnashr. 1959. 49-b.
3. 2022 – 2026-йилларда халқ таълимини ривожлантириш бўйича МИЛЛИЙ ДАСТУР. ПФ -134-сон. Тошкент 2022-йил 11-май.